

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY VA MUMTOZ MUSIQAGA BO'LGAN MUNOSABATLAR

Tajiboev Elmurod Maxmudjonovich,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.

*Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Prezidenti tomonidan tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, milliy va mumtoz musiqa madaniyatimizni yanada keng targ'ib qilish va o'r ganish borasida nufuzli festivallar, turli ko'rik-tanlovlар va konsertlarning ahamiyati haqida bat afsil ma'lumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: musiqa, milliy, madaniyat, islohot, an'ana, maktab, o'quvchi, madaniyat markazi, bolalar musiqa maktabi, milliy cholq'u, konsepsiya.*

## ATTITUDES TO NATIONAL AND CLASSICAL MUSIC IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tajiboev Elmurod Makhmudjonovich,

Doctor of Philosophy (PhD) Pedagogical Sciences. Senior Teacher of Namangan state pedagogical institute.

*Annotation: this article provides detailed information about the decisions taken by the President of the Republic of Uzbekistan, the importance of prestigious festivals, various pageants and concerts for the wider promotion and study of our national and classical music culture.*

*Key words: music, national, culture, reform, tradition, school, student, cultural center, children's music school, national instrument, concept.*

## ОТНОШЕНИЕ К НАЦИОНАЛЬНОЙ И КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тажибоев Эльмурод Махмуджонович

Доктор философии педагогических наук (PhD) Старший преподаватель Наманганского государственного педагогического института.

*Аннотация: в данной статье представлена подробная информация о решениях, принятых Президентом Республики Узбекистан, значениях престижных фестивалей, различных конкурсов и концертов для более широкой пропаганды и изучения нашей национальной и классической музыкальной культуры.*

*Ключевые слова: музыка, национальная, культура, реформа, традиция, школа, ученик, культурный центр, детская музыкальная школа, национальный инструмент, концепция.*

Kirish. 2022-2023-o'quv yilidan boshlab umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholq'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etiladi. 10130 ta muktab, 323 ta bolalar musiqa maktabi, 826 ta madaniyat markazi 7 turdag'i milliy cholq'ular bilan 3 to'plamdan ta'minlanadi." [1] Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan bu kabi mazmundagi qarorlar yurt ertasi bo'lgan yoshlar istiqbolini ko'zlagan muhim qadamlardan yana biridir.

Adabiyotlar tahlili. 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risidagi, keyingi yillarda muhtaram yurtbosimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 28 noyabrdagi PQ-4038-soni «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash xususida»gi qarori, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-soni farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi" [2], 2019-yil 8-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-soni Qarori [3], O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy islohotlar jarayoni musiqa san'ati sohasida ham o'z aksini topayotganligi, xususan, o'quvchilarda milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda "yoshlarni gumanizmning yuksak ideallari asosida tarbiyalash yo'lida barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirgan musiqa san'atining roli va ahamiyatini tobora ortirdi" [4]. Bu borada musiqiy meros namunalarida in'ikos etgan azaliy yuksak

badiiy qiymatlarni ilg‘or ilmiy metodlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Rrezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi [5] da belgilangan vazifalar ijrosi mazmunidan kelib chiqib “...ta’lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ‘ib qilishga ko‘maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni ta’minlash” qarori yuzasidan bugungi kunda milliy musiqa tinglash va o‘rganishda innovatsion didaktik o‘quv-uslubiy darslik va elektron dasturlar ishlab chiqarilmoxda. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevral kungi PQ-112 “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan “Ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo’llagan holda amalga oshirish” [6] mezonlarini hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda o‘quvchilarda milliy musiqa tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishda mavjud muammolarni bartaraf etish milliy musiqa merosimizni asrab avaylagan holda kelajak avlodlarga etkazish bilan bir qatorda jahon ta’limi taraqqiyotining yutuqlaridan ham maqsadli foydalana olish va ilg‘or tajribalarni milliy qadriyatlarimiz va qarashlarimizga moslashtirish orqali ta’limning yuqori pog‘onalariga ko‘tarishni maqsad qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Rrezidentining 2018-yil 26 avgustdag‘i “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son qarori. “Mahalliy madaniyat va san’at muassasalarining jahon madaniy makoniga puxta integratsiya qilinmaganligi mamlakatimizning ijobiy qiyofasini shakllantirishda va mintaqaning madaniy markazi sifatidagi maqomini mustahkamlashda mavjud boy madaniy-tarixiy merosdan hamda madaniyat va san’atning zamonaviy yo‘nalishlaridan to‘liq foydalanish” [7] kabi muhim vazifalarga:

Innovatsion rivojlanish: Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish uchun, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va ularni amalga oshirish kerak[8].

Bu sohadagi yoshlar va keng ko‘plikdagi aholi o‘rtasida maxsus kurslar, o‘quv dasturlar, seminarlar va ijtimoiy tashkilotlar tashkil etish lozim.

Jahon madaniy makoniga integratsiyalash: Milliy musiqamizni jahon madaniy makoniga integratsiyalash ham muhim vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishish uchun, milliy musiqamizni dunyodagi boshqa madaniyatlardan ta’sir olgan eng yuqori saviyadagi musiqalardan o‘rganish va ularga oid teatr, kinoteatr, o‘yin va boshqa ko‘plab tadbirlarga qatnashish kerak.

Milliy va mumtoz musiqa madaniyatimizni yanada keng targ‘ib qilish va o‘rganish borasida nufuzli festivallar, turli ko‘rik-tanlovlar va konsertlar, gastrollar tashkil etildi.

Mustaqillik davrida xalqro tanlovlarni o‘tkazish keng rivoj topdi O‘zbekistonning barcha hududlarida o‘tkaziladigan Yu.Rajabiy nomidagi maqom ijrochilari (1983-yildan, Toshkent), “Qo‘sish bayrami” (1992-yildan), Ma’murjon Uzoqov nomidagi (1997-yildan, Marg‘ilon shahri, 2001-yildan J. Sultonov va M. Uzoqov nomida), F.Mamatdaliyev va O.Yusupov nomidagi (2001-yildan, Andijon), Noji Abdulaziz Abdurasulov nomidagi (1997-yildan, Samarqand), Komiljon Otaniyozov nomidagi (1997-yildan, Xorazm) xonandalar tanlovlari va boshqa “Asrlar navosi” ko‘hna milliy sozlar (tan-bursato, nay va dutor) ijrochilarining Respublika tanlovi (1998, Buxoro), “O‘zbekiston-Vatanim manim” (1996, Toshkent), “Yangi taronalar” milliy estrada qo‘sish va kuylari respublika tanlovi (1998, Jizzax; 2002, Guliston); «Aziz ona yurtim navolari» milliy estrada qo‘sishlari respublika tanlovi, “Boysun bahori” xalqaro folklor jamoalari ochiq festivali (2002-yildan, Boysun shahri) va boshqa Toshkentda 1995-yildan har yili o‘tkazilayotgan «Ilhom-XX» Xalqaro zamonaviy musiqa, 1998-yildan har ikki yilda o‘tkazilayotgan Xalqaro simfonik musiqa festivallari, 1997-yildan har ikki yilda o‘tkazilayotgan «Sharq taronalar» (Samarqand) Xalqaro musiqa festivali doirasidagi ijrochilar tanlovi va musiqashunoslar anjumanini ham jahon miqyosida tan olinmoqda [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Yana bir milliy musiqa madaniyatimiz, xalqimizning boy madaniy merosiga berilayotgan e’tibor natijasida mamlakatimizda Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu festival 2019-yilda Termiz shahrida, 2021-yilda Nukus shahrida nufuzli xalqaro tashkilotlar va mehmonlar ishtirokida yuqori saviyada o‘tkazildi.

YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi XVI sessiyasi (2021-yil, Parij shahri) doirasida Baxshichilik san’ati O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi elementi sifatida Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi [10] hamda u ro‘yxatga kiritilgan nomoddiy madaniy merosning oltinchi elementi bo‘ldi. Bunga qadar

ushbu ro'yxatdan "Boysun tumani madaniy makoni" (2008), "Katta ashula" (2009) va "Lazgi" (2019) o'rin olgan edi. Bundan tashqari, O'zbekiston boshqa davlatlar bilan hammualliflikda "Shoshmaqom" (2008), "Navro'z" (2016) nominatsiyalarini ilgari surishda ishtirok etdi. Kelgusi yillarda «rubob chalish» nominatsiyasini qo'mita muhokamasiga kiritish rejalashtirilgan. [11]

"Boysun tumani madaniy makoni" (2008) – bu mukammal sifatda Boysun tumani tarixi, madaniyati, ijodi va geografik hududining ayrim sohalaridagi qadimiy asarlarini to'plagan album. Ushbu asar Boysun tumani tarixi va madaniyati bo'yicha o'rganuvchilarga katta yordam beradi.

"Katta ashula" (2009) – bu O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni bilan bog'liq yig'ilishlar uchun yozilgan qo'shiq. Ushbu asar mustaqillikni yutuqlash yo'li bo'yicha yozilgan va shunday qilib O'zbekistonning mustaqillikka erishishining yodgorligini aks ettiradi.

"Lazgi" (2019) – bu esa O'zbek xalqining milliy o'yinlari orasida o'ynaluvchi "Lazgi" o'yini tarixi, madaniyati va musiqasi bo'yicha yaratilgan. Ushbu asar O'zbekiston milliy musiqasining hamjihatlikda to'planib, milliy va dunyo musiqa e'lon qilinishiga yordam berdi.

"Shoshmaqom" (2008) – bu esa O'zbekiston va Eron hamkorligida yaratilgan musiqa asarlari to'plamidir. Ushbu asar O'zbekiston va Iran musiqasi aloqasiga bag'ishlangan va o'z ichiga O'zbekiston shoshmaqoming navoiga o'ziga xos o'zgartirishlarni kiritgan.

"Navro'z" (2016) – bu esa O'zbekiston milliy bayrami Navro'zga bag'ishlangan musiqa asarlari to'plamidir. Ushbu asar O'zbekiston milliy madaniyatiga, Navro'z bayramining ahamiyatiga bag'ishlangan.

"Rubob chalish" nominatsiyasi O'zbekiston xalq musiqasi san'atkorlarining hamjihatlikda yaratilgan usullar va repertuarlarni o'rgatishga qaratilgan. Bu rejalashtirish O'zbekiston milliy musiqasining rivojlanishiga va dunyoga ko'rsatilishiga muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar mazkur sohani rivojlantirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, 2015-yil 20 noyabrdagi PQ-2435-son «Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish» bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risidagi, keyingi yillarda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash xususida" gi qarori, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi" [12], 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi mактабгача ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori [13] Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy islohotlar jarayoni musiqa san'ati sohasida ham o'z aksini topayotganligi xususan o'quvchilarda milliy musiqa tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishda Milliy musiqa madaniyatimizning yanada keng targ'ib qilinishi va o'rganish borasida nufuzli festivallar, tanlovlар va konsertlar [14], gastrollar tashkil etilishi, musiqa san'atining o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur qaror va farmonlar bugungi kunda o'sib kelayotgan yo avlodlarni komil inson bo'lib kamol topishi bilan birga jonajon vatanimizni rivojlangan davlatlar ichra tenglararo teng raqobatlasha oladigan taraqqiy etgan mamlakat bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan bu kabi mazmundagi qarorlar yurt ertasi bo'lgan yoshlar istiqbolini ko'zlagan muhim qadamlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng xukumat tomonidan mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida o'zbek milliy musiqasi va san'atini har tomonlama rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, O'zbekiston musiqa san'ati dunyo miqyosida ham bilan aloqa o'rnatishi zarur bo'ladi. Bu maqsad uchun Xalqaro ijodiy festival va ko'rsatmalarda O'zbekiston musiqa san'atining namoyonlari ijro etilishi kerak. Boshqa davlatlar bilan musiqa sahalarida almashishish, muzey va o'yin-ko'rsatma tashkil qilish, o'zaro almashtirish va tanishishda qo'llanma qilish zarur.

Mumtoz musiqamiz amaliyoti va ravnaqiga nazar solar ekanmiz, biz buyuk madaniyat sohiblari avlodi ekanligimizni ko'ramiz. Yosh avlod vakillari o'tmishda yaratilgan merosni o'qib, ardoqlab, ijro etib idrok qilib o'zlashtirsalar, xalqimiz suyb ardoqlagan ulug' ustozi hofiz-u sozandalarning yo'llarini davom ettirgan bo'ladilar.

Mustaqillik davrida ta'limning shakli va mazmuniy jihatlari qayta ko'rib chiqilishdan tashqari, uning ayrim tuzilmalari qayta ishlab chiqildi hattoki, mazmun jixatlari ham yangilandi.

Nozirgi zamon milliy bastakorlik udumlarini e'zozlash va ravnaq toptirish ta'lim va tarbiya jarayonida ustoz shogird ilg'or an'analaridan keng foydalanish, mumtoz va zamonaviy musiqa madaniyati

mashhur namoyandalari ijodi va faoliyatida yoshlarni musiqani eshitish hamda tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish borasidagi usul va uslublari tatbiq etilmoqda.

#### Adabiyotlar ro’yhati

1. “Maktab o‘quvchilariga kamida bitta milliy cholq‘u asbobini chalish mahorati o‘rgatiladi”. 3 fevral 2022.// <https://www.gazeta.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.// <https://lex.uz/docs/4312785>
- 3.«Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 28.12.2017. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1026-son qarori// <https://lex.uz/docs/4327235>
4. Sh.Mirziyoyev. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san’at // Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi, 7 сентябрь, 2018 y. – B.1
5. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020\_yil\_24\_yanvar)”. <https://nrm.uz>
6. “Ta’lim to‘g‘risidagi O‘RQ” – 637. 23.09.2020 // <https://lex.uz>
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini инновацион rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son qarori. // <http://lex.uz>
- 8.Ишуткина Е.В. (2014). Учебно-методическая работа преподавателя колледжа в рамках современного образовательного процесса // Проблемы и перспективы развития образования в России, (25), 45-50-с.
- 9.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 215b.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.02.2022 yildagi 59-son. // <https://lex.uz/uz/docs/-5849841>
11. “Ozbek-baxshichilik-sanati-unesco-royxatiga-kiritildi”. / 16.12.2021. <https://kun.uz/uz/news>
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. <https://lex.uz/docs/4312785>
- 13.«Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 28.12.2017. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1026-son qarori. <https://lex.uz/docs/4327235>
14. Ишуткина Е.В. (2014). Учебно-методическая работа преподавателя колледжа в рамках современного образовательного процесса // Проблемы и перспективы развития образования в России, (25), 45-50 с.